

## **ESHITISH FUNKSIYASINING PASAYISHI YOKI BUTUNLAY YO'QOLISHIGA SABAB BO'LUVCHI OMILLAR**

Abduxalilova Marjona Ixtiyor qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lif fakulteti Surdopedagogika yo'nalishi talabasi

### **Annontatsiya**

Eshitish funksiyasining pasayishi yoki butunlay yo'qolishi, ichki, o'rta va tashqi quloqda turli kasalliklarning yuzaga kelishi natijasida eshitishning buzilishi hamda turli yuqumli kasalliklarning bola eshitish funksiyasiga salbiy ta'siri haqida so'z yurililgan.

**Kalit so'zlar:** Virusli kasalliklar, eshitish sezgilarini tug'ma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofini, ximik zaharlanish, tug'ish davridagi travmalar, mexanik travmalar, adenoid, xronik shamollahish, L.V.Neyman, Gs, dB.

### **Аннотация**

Обсуждается выявление различных функциональных отклонений позвоночника и стоп у детей с отклонениями в развитии, таких как искривление, асимметрия плеч, деформация стоп, развитие физических и двигательных навыков для их профилактики.

**Ключевые слова:** асимметрия, деформация, качество ходьбы, скорость и твердость движений, координация движений, координация, функция равновесия, позвоночник, плоскостопие, ритмический сигнал.

### **Aannotation**

It is discussed about the identification of various functional deviations in the spine and feet of children with developmental disabilities such as curvature, asymmetry of the shoulders, deformation of the feet, development of physical and motor skills for its prevention.

**Key words:** Asymmetry, deformation, Walking quality, speed and firmness of movements, movement coordination, coordination, balance function, spine, flat feet, rhythmic signal.

Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishga homiladorlikni noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklari ham muhim rol o'ynaydi. Eshitish buzilishi sabablari eshitish sezgilarini tug'ma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofini, ximik zaharlanish, tug'ish davridagi travmalar, mexanik travmalar, kuchli ovoz ta'sirotlarining akustik ta'siroti bo'lishi mumkin. Eshitish buzilish o'rat quloqni o'tkir shamollahshi oqibatida yuzaga kelishi mumkin.

Eshitishning qat'iy buzilishi burun va halqum (adenoid, xronik shamollahish) kasalliklari natijasida kuzatiladi. Bu kasallliklarc haqaloqlik chog'ida jiddiy xavf soladi. Eshitish

pasayishiga ta'sir qiluvchi omillar orasida ototopsikpreporatiplar asosan antibiologiklar muhim o'ringa egadir. Eshituv funksiyasi buzilishi asosan chaqaloqlik davrida ko'p uchraydi. L.V.Neyman (1959) eshitish buzilishlari 70 % i 2-3 yoshlarda kuzatilishini e'tirof etib o'tadi. Bola hayotining keyingi yillarda eshitishni pasayishi kam kuzatiladi.

Eshitishni buzilishlari yuzaga kelishda kasbiy omillar ham katta ahamiyatga ega. Karlar oilasida eshituvchilar oilasiga qaraganda ko'p miqdorda kar bola tug'iladi. Shuningdek yaqin qarindoshlar nikohida va er-xotin yoshi o'rtasida katta farq ham eshitish buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Aroqxo'r ota-onalar, kensok kasalligi turli xromasomali kasalligi mavjud oilalar (uchuvchi va suvga sho'ng'uvchilar)da ham eshitishda nuqsoni mavjud bolalar tug'ilishi kuzatiladi.

Chet el va rus statistikasi ko'rsatishicha, eshitishda nuqsoni mavjud bolalar soni oshmoqda. Turli mamlakatlarda o'tkazilayotgan tadqiqotlarga ko'ra, yer yuzi aholisini 4-6 % i eshitishda nuqsonga ega bo'lib, jismoniy muloqotga ehtiyoj sezadi.

Bularda ikki tomonlama eshitish pasayiga ega bo'lib, so'zlashuv eshitishni 3 metrdan so'zlashuv eshitishni idrok etadi, 4 % esa bir tomonlama karlikka egadir.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiy rivojlanish xususiyatlarini to'g'ri tushunish uchun ularga o'z vaqtida tashxis qo'yish, ta'lim-tarbiyani muassasasini tanlash, bu jarayonni tashkil etishda bu bolalarning tasnifi muhim o'rinn tutadi. ENB shaxslarning tasnif surdopedagog va doktorlarni doimo qiziqtirib kelgan. Bizning mamlakatimizda L.V.Neylan (1961) tomonidan taklif etilgan tasnif keng tarqalgan.

Agar eshitish buzilishi so'zlashuv eshitishga taaluqli chastotalar diopozomida (500 dan 1500 Gs) tarqalsa, uni idrok etishi amalga oshmaydi.

Agar eshitish buzilishi 100 dB dan ortsa, karlik yuzaga keladi, qisman eshitish buzilsa nuqson 15 dB dan 80 dB gacha darajada namoyon bo'ladi. Ushbu taklifga ko'ra zaif eshituvchilarning 3 guruhi tavsiflanadi. Eshitish qoldig'i saqlanganligi darajasiga ko'ra 4 guruhga tasniflanadi: (125 dan 2000 Gs, 125 dan 1000 Gs gacha, 125 dan 500 Gs gacha, 125 dan 250 Gs gacha).

Eshitishni yo'qotish darajasi eshitish buzilishini yuzaga kelish vaqt ni rivojlanish darajasi ko'rsatilgan ko'rsatkichlarga bog'liq holda quyidagi guruhlarni tasniflaydi:

I-kar bolalar. Bu guruhga kiruvchi bolalar eshitishni tabiiy idrok etolmaydilar uni mustaqil egallay olmaydi. Ular ko'rav (labdan o'qish) va eshituv ko'rav (Tovush kuchaytirish apparati yordamida) orqali maxsus ta'lim jarayonida so'zlashuv eshitishni idrok etadi.

II-kech kar bo'lgan bolalar (eshitish mavjud bolalar) - ularda eshitish buzilishi turli darajada tuzilgan, eshitish turli darajada saqlanganligi kuzatiladi. Lekin maxsus tashkil etilgan ta'limsiz mavjud nutq yo'qolib ketishi mumkin. Bu bolalar so'zlashuv, muloqot malakasiga ega bo'ladilar. Ular uchun so'zlashuv eshitishni ko'rav va eshituv idrokining malakalari shakkantirish muhimdir. Tafakkurni rivojlantirish ma'lum darajada eshituvchi bolalar tafakkurini rivojlanishi bilan o'xshashdir. Bu o'xshashlik eshitish lug'at hamda atrof muhit, voqeа-hodisalarini so'zda ifodalash darajasiga ko'ra bo'ladi.

III-zaif eshituvchi bolalar. Eshitish darajasiga ko'ra bu bolalar ma'lum darajada nutqni mustaqil egallashlari mumkin, lekin ularda talaffuz nuqsonlari uchraydi. Nutqni ko'rur orqali idrok etish eshitish buzilish darajasiga ko'ra bo'ladi.

Psixo-pedagogik tasnif asosida ENB bolalarni tabaqali maxsus ta'limi amalga oshadi. Bolani u yoki bu o'quv muassasasiga yo'naltirishda bolani eshitish rivojlanishi va eshitish buzilishi darjasini hisobga olinishi lozim.

Chunonchi zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lgan bolalar, eshitish rivojlanish mavjud kar bolalar zaif eshituvchi bolalar maxsus mактабида ta'lim oladilar.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiyatini o'rganishda psixologiyaning asosiy va yordamchi metodlari qo'llaniladi. Asosiy metodlari turkumi kuzatish va psixologik eksperiment metodlarini qamrab oladi.

Xulosa va umumlashmalar uchun zaruriy material olish uchun bolalarning turli faoliyatda o'yin, o'qish, uy vazifalarini bajarish, takrorlanuvchi, o'zgaruvchi sharoitlarda kuzatish maqsadga muvofiqdir. Bola eshitish rivojlanishining umumiylar sharoitida kuzatilayotgan hodisalarning xususiy tomonlarini aniqlash imkoniy yuzaga keladi.

Bolaning ta'lim-tarbiya sharoiti, eshitishni buzilish vaqtini va darajasi eshitishni buzilish sababi unda mavjud nutq shakllari (og'zaki, yozma, daktil, imo-ishora) o'zlashtirish darjasini, oila tipi hisobga olinadi. Sog'lom va kar bolalarni qiyosiy o'rganish uchun yosh tamoyili ko'ra olinadi, tekshiriluvchilar bir yoshda to'lish kerak. Bu ularni ruhiy rivojlanishini qiyosiy o'rganishga yordam beradi. Kar o'quvchilar psixologik xususiyatlari o'rgatishda psixologik eksperimentning barcha turlaridan foydalaniladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. P.Po'latova, L. Nurmuhamedova, Sh.Amirsaidova Maxsus pedagogika-T.: Fan va Texnologiyalar ,2014
2. "Surdopedagogika" öquv -uslubiy majmua. Tuzuvchi;Mamarajabova.Z.N
3. D.A.Nurkeldiyeva,M.U.Hamidova Rivojlanishida nuqsoni bòlgan bolalar diagnostikasi.
4. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. –Toshkent: TDPI. 1994
5. Nurmuxamedova L.SH. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari.: Ped. fan. nomz.dis. ... avtoref. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2005.
6. AmirsaidovaSh.M.. Maxsus pedagogika fani rivojlanishida sharq mutafakkirlari g'oyalarining o'rni va roli. Ped.fan.nomz.diss.